

UNABI NAVLARINI O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARIGA VA MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA, EKOLOGIK MUHITNING TA'SIRI

Raimova Dilnoza

Qarshi davlat universiteti

Agrokimyo va ekologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya ilmiy maqolada qashqadaryo vohasi sharoitida unabi plantatsiyalarini tashkil etish va yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. tajribalar davomida unabining 5-xil navi, ta-yan-sizo, u-sin-xun, va xitoydan yaqinda introduksiya qilingan mayabaizao, jixinzao, zanhuangdazao navlarini o'suv va gul kurtaklarining yozilishi, kurtaklarning bo'rtishi va gullash muddatlarining xususiyatlariga ekologik muhitning ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlari: *Unabi, nav, muddat, sharoit, faza, kurtak, gullash, vegetatsiya, gulkurtak.*

Mavzusining dolzarbligi. Barcha o'simliklarning hududiy geografik sharoiti o'zgarganda ularning o'sishi va rivojlanish jarayonlarida bir qancha morfologik belgilarini o'zgarishlari kuzatiladi. O'simliklarni o'sishi va rivojlanishini, fenologik kuzatuvlar davomida adaptiv holatini baholashda, ma'lum bir muddatda ulardagi o'zgarishlarni taqqoslash orqali, ularning o'sish va rivojlanishini davomiyligini aniqlash mumkin bo'ladi. Ayrim kam meva beradigan va o'rtacha hosilli mevali daraxtlar, yengil tipdagi tuproq sharoitlarida mevalarining pishishi va vegetatsiya davri biroz qisqa bo'ladi. Tajribalarda o'rganilgan unabi navlarda fenologik fazalarning o'tish vaqti diyarli bir xil bo'lib, dastlabki vegetatsiya davrida o'simliklarni o'sishi va rivojlanishiga ekologik muhitning ta'siriga bog'liqligi kuzatildi. Tadqiqotlar davomida unabi navlarining o'sishi va rivojlanishi bo'yicha fenologik kuzatuvlar olib borilganda, vegetativ yo'l bilan (qalamchalardan) ko'paytirilgan barcha navlarda, vegetatsiya

davrining boshlanishi aprel oyining ikkinchi dekadasi va may oyining birinchi dekadisiga to'g'ri kelganligi kuzatildi. Unabi o'simliklarni uyg'onishi navlararo ma'lum bir tofovutlar ya'ni unabi navlari orasidagi farq 2-4 kunni tashkil etganligi kuzatildi.

Unabi navlarining ekologik sharoitlarga moslashishini tadqiq etishda (*Ziziphus*) oilasiga mansub o'simliklarda, tur ichidagi va nav xilma-xilligini baholash orqali ulardagi farqlanishlarni kuzatish mumkin bo'ladi. Boshqa turdagi o'simliklar singari (*Ziziphus*) oilasiga mansub o'simliklarda ham navlarning genetik salohiyatini saqlab qolish, turli xil ekologik sharoitlarida belgilarning o'zgaruvchanligini o'rganishga asoslangan navlarning bioekologik imkoniyatlarini baholashga ta'sir qiladi. Unabi navlarini morfologik belgilarining o'zgaruvchanligi, introduksiya qilingan sharoitida uning ekologik valentligini aniqlash imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarda unabi o'simligini alohida navlar kesimida, ularning fenotip o'zgarishlari tahlil etildi. Qashqadaryo vohasidagi ekologik sharoit uchun eng muhim bo'lgan unabi navlarini ajratib olish, jumladan barglari kichik, qurg'oqchilikka va yuqori haroratga va yuqori quruq past haroratga chidamliligi aniqlandi.

Tajribalarimizda o'rganilgan navlarni qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyatini (barg yuzasi, barg hajmi) aniqlash shuni ko'rsatdiki, eng past ko'rsatkichlar Ta-yan-sizo 54-56 kun, U-sin-xun 55-57 kun, Mayabaizao 50-52 kun, Jixinzao 52-54 kun, Zanhuangdazao 50-52 oraliq o'rinlarni egallagan. Eng past qurg'oqchilikka chidamlilik indeksi turning ko'proq kserofitik ekanligini ko'rsatadi. Barglarning kseromorfizmi (*Ziziphus unabi navlarini* tabiiy tarqalgan hududi ya'ni Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston hududlarini ekologik xususiyatlari bilan izohlanadi).

O'simlik barg sathining o'lchamidan kelib chiqib transpiratsiya yuzasining qisqarishi, o'simlikda kamroq suv sarfini ta'minlashi kuzatildi. Unabi navlarini xilma-xilligi ekologik muhitga moslashish imkoniyatlarini tavsiflovchi biomorfologik xususiyatlar va parametrlar aniqlandi. Shu bilan birga o'simliklardagi morfometrik parametrlar (novdalar uzunligi va barglar soni) o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi.

Navlar orasidagi barg sathining o'zgarishi abiotik omillarga bog'liqligi kuzatildi. Unabi navlari yog'ingarchilik kam bo'lgan hududlarda o'stirilganda odatda *ularning barglari yuqori tamirlash nisbatga ega bo'ladi*. Bargdagi tomirlar soni va bargning uzunligi va kengligi o'rtasidagi bog'liqlik juda yuqori deb baholandi. Barglarning morfologik belgi va hususiyatlari xilma-xil bo'lib ular navlarning ekologik va biologik salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Unabi o'simligi barglarda kechadigan assimilyatsiya jarayoni atrof-muhit omillariga, ekologik muhitga moslashishini ta'minlaydi. Unabi o'simligi barglarning morfologik xususiyatlarining o'zgaruvchanligini o'rganish jarayonida turli xil morfologik o'zgaruvchanliklar kuzatildi. Bizga ma'lumki har qanday populyatsiyaning, shu jumladan tajribamizda o'rganilayotgan unabi navlarini ko'payish qobiliyati bir qancha tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Unabi o'simligida gullash va meva berish davriga o'tishi, o'simlikning ichki rivojlanish omillaridan tashqari, tashqi abiotik omillarga ham bog'liqligi kuzatildi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki Qashqadaryo vohasining quruq hududida darxtni gullashi va meva berishi markazi hududlarga taqqoslanganda biroz erta boshlanishi kuzatildi (1-rasm).



1-rasm unabi o'simligini yangi novdalarida gullarning shoda bo'lib ochilish jarayoni

Unabi o'simligini yoppasiga gullash jarayoni havo harorati 22-24 ° S bo'lgan eng zarur harorat hisoblanadi. Gullarning changlanishi uchun havoning nisbiy namligi 40-45 % bo'lishi talab etiladi. Gullashning davomiyligi alohida mevali kurtaklar ustida

gullarning paydo bo'lishi novdalarni o'sishi va kurtaklari shakllanishi jarayonida bosqichma-bosqich amalga oshadi. Gullash davomiyligi kurtaklarni ketma ketlikda, birinchi bo'lib bitta kurtak, so'ngra keyingi kurtaklar navbat bilan ochilib borishi kuzatildi. Har bir gulning gullash davri gullash davomidagi va novdadagi gullar soniga bog'liq ravishda amalga oshdi. Yorug'lik va issiqlik sharoitlari yaxshi bo'lgan quruq ekologik sharoitida ko'p sonli generativ kurtaklar hosil bo'lib, bu meva va urug'larning keyingi hosildorligiga ta'sir ko'rsatdi. Unabi o'simliklarda jadal gullashi, birinchi gullashdan 1-2 yil o'tgach sodir bo'ladi. O'simliklarni birinchi yili gullashi, qoida tariqasida, zaif yoki o'rta tabiatga ega bo'lib, odatda meva tugish bilan yakunlandi.

Xulosa Shuni ta'kidlash zarurki Qashqadaryo vohasi tuproq iqlim sharoitida unabi yetishtirishda daraxtlarni o'sishi va rivojlanishiga tuproq-iqlim sharoitini bevosita ta'siri yuqori ekanligi tajribalarimizda kuzatildi. Unabi o'simligini yoppasiga gullash jarayoni havo harorati 22-24 °S bo'lgan eng zarur harorat hisoblanadi. Gullarning changlanishi uchun havoning nisbiy namligi 40-45 % bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Алиев, Х.А. Перспективы интродукции субтропических культур в новые агроэкологические условия / Х.А. Алиев, М.Д. Мукайлов, Б.С. Гасанбеков // Проблемы развития АПК региона. - 2011. - №4(8). - С. 11-12.

2. Жученко, А.А. Селекция растений на устойчивость к действию абиотических и биотических стрессоров / А.А. Жученко // Научное обеспечение устойчивого развития сельскохозяйственного производства в засушливых зонах России: сб. матер. науч. сессии. - М., 2000. - Ч. II. - С. 5-18.

3. Загиров Н.Г., Ибрагимов Н.А., Мамерзаев Ш.С. Устойчивость субтропических культур к зимним повреждениям в Южном Дагестане // Сборник статей международной научно-практической конференции: «Основные проблемы, тенденции и перспективы устойчивого развития сельскохозяйственного производства». — Том 1. — Махачкала, 2006. — С. 228-229.